



M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **M**AKTABGACHA VA **AKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*



## **TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudojberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов .....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanshida	
qо'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati.....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarlari tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruв kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....	52
Sotiboliyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth .....	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv .....	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi .....	70
Abdullahayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
O специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....	80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....	84
Jorayeva Sohibiamol Norgobilovna	

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Ekspериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный" .....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi.....	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari.....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Kopинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....	113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна	
Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish.....	117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение" .....	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development.....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish .....	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrleshga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish .....	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilingual rivojlanish .....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Vliyanie igrovoy deyatel'nosti v processe izucheniya anglijskogo jazyka v doo.....	157
Ergashewa Kamola Alisherovna	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....	161
Gaukhara Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	

# JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI



Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

PhD, Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasini mudiri, dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat, Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan o'lkaning ijtimoiy va madaniy hayotini yangilanishi, Turkiston taraqqiyotining yuksak bosqichlarga olib chiqqan jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojanishiga kuchli turtki bergan taraqqiy-parvar ma'rifatparvarlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy, siyosiy, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim, jadid, maktab, darslik.

**Abstract:** In this article, the socio-political and economic situation that arose in Turkestan in the second half of the 19th century, the progressive movement that played an important role in the history of Turkestan, renewed the social and cultural life of the country, and gave a strong impetus to the emergence and development of the modernist movement that brought the development of Turkestan to high levels. Information about health workers is given.

**Key words:** social, political, spirituality, enlightenment, education, modernity, school, textbook.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается общественно-политическая и экономическая ситуация, возникшая в Туркестане во второй половине XIX века, прогрессивное движение, сыгравшее важную роль в истории Туркестана, обновившее общественную и культурную жизнь страны, и дал мощный толчок зарождению и развитию модернистского движения, которое вывело развитие Туркестана на высокий уровень.

**Ключевые слова:** социальное, политическое, духовность, просвещение, образование, современность, школа, учебник.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi"da "...ko'pchilik ziyorolar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'yayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurban qildilar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas", degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

## ASOSIY QISM

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yod jamiat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o'ta past, madaniy-ma'naviy hayotida islam dini peshvolarining ta'siri kuchli edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi.



XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat mahalliy aholining vatanparvar, ma'rifatparvar ziyolilari va ulamolarini tashvishga solmasdan, o'ylantirmasdan qolmadi. Ular o'lkadagi voqelikni, uni keltirib chiqargan sabablarni lahlil qilib, ahvol shu tarzda davom etishi mumkin emasligini tushunib yetdilar. Natijada Turkiston hayotidagi inqiroz, chor Rossiyasining Turkistonda mustamlakachilik tuzumi, sotqin mahalliy amaldorlar, umuman, mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumga qarshi mazmun-mohiyatiga ko'ra uch yo'nalishdagi harakatlar yuzaga keldi. Ulardan birinchisi – o'z asarlari orqali real voqelikni, jamiyatning kamchiliklarini ochib berib, kishilarni taraqqiyotga xizmat qilishga chaqirgan shoir va yozuvchilar ijodi bo'lsa, ikkinchisi – mahalliy aholini taraqqiyotga erishish g'oyasi asosida birlashtirishga harakat qilgan jadidlar harakati va uchinchisi – mavjud tuzumni inqilobiy yo'l bilan o'zgartirishni, ya'ni hokimiyatni qurol kuchi bilan qo'liga olishni maqsad qilib olgan sotsial-demokratlar va boshqa rus tilli kishilar tashkilotlarining harakatidir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston aholisining 95 foizini tub aholi vakillari tashkil qilar edi. Ularning ijtimoiy ongini o'stirish, o'zligini anglash, erk va ozodlik, o'z haq-huquqlarini himoya qilishga targ'ib qilish, ularda demokratik qarashlarni shakllantirishda Ahmad Donish, Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (Berdaq), Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimi, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Avaz O'tar, Ubaydulla Solih Zavqiy kabi birinchi yo'nalishdagi ijodkorlarning hissasi beqiyosdir. Ular o'zlarining asarlari orqali mustamlakachilik zulmi ostida qolgan Turkiston xalqini g'aflat uyqusidan uyg'otishga harakat qildilar.

Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan, o'lkaning ijtimoiy va madaniy hayotini yangilash, uni taraqqiyotning yuksak bosqichlariga olib chiqish uchun kurash harakati sifatida yuzaga kelgan ikkinchi yo'nalishdagi ijtimoiy harakat jadidlik harakati edi. Maorifni isloh qilish, ta'lindan esklilik sarqitlarini chiqarib tashlash, yangi imloni joriy qilish, taraqqiy etgan dunyoning ilg'or ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish dasturi bilan chiqqan, ya'ni oddiy ma'rifatchilikdan boshlangan jadidlik harakati 1917-yilning boshlarida siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mahalliy xalq ziyolilari Yevropaning Rossiya, Turkiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlariga tez-tez safar qilib turdilar. Safar davomida ular u yerlardagi yuksak rivojlangan iqtisodiyot, madaniyat bilan tanishdilar va bu yutuqlar sanoat ishlab chiqarishi, yangicha ta'lim tizimi, dunyoviy bilimlarni o'rganish bilan bog'liq ekanligini ko'rdilar hamda asosan diniy aqidalarni o'rganishga asoslangan maorif tizimini o'zgartirmay turib mahalliy xalqni ma'rifatli qilish, uni asriy qoloqlikdan olib chiqish mumkin emasligini tushunib etdilar. Ular madaniy-ma'rifiy tarbiyaga mahalliy aholini erk va ozodlikka olib chiqishning asosiy omili deb qaradilar, diniy-dunyoviy ma'rifatni musulmon mutaasibligiga qarshi qo'ydilar. Bunday ziyolilar keyinchalik o'zlarini jadidlar deb atay boshladilar.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

"Jadid" arabcha so'z bo'lib, yangi uslub, yangicha tafakkur degan ma'nolarni bildiradi. Shuni ko'rsatib o'tish joizki, jadidlar islom dini asoslari va uning shariati qoidalarini yaxshi bilganlar. Jadidlikning paydo bo'lishida islomdagi diniy-dunyoviylikning, ilm olishning farz darajasiga ko'tarilganligining o'rni katta bo'ldi. Bu harakat islomdagi taraqqiyotparvarlik, ilm-fanga rag'bat va dunyoviylikning yangi davrdagi ko'rinishi sifatida paydo bo'ldi. Jadidlikning paydo bo'lishi va rivojlanishida Sharq va G'arb mamlakatlarida sodir bo'lgan demokratik va milliy-ozodlik harakatlarining ta'siri katta bo'ldi.

Bular: Rossiyada XIX asrning 90-yillardan boshlanib 1917-yil fevralida g'alabaga erishgan sotsial-demokratik harakati, Sharq mamlakatlardan Turkiyadagi 1908-yil inqilobi, Hindistondagi mustamlakachilikka qarshi 1905-1908 yillar harakati, Erondagi 1905-1911-yillar konstitutsiyaviy harakatlaridir. Jadidlik harakatiga qrimlik ma'rifatparvar Ismoilbey Gaspirali (1851-1914)ning qarashlari va g'oyalari asos bo'lib xizmat qildi. Ismoilbey Rossiyaning markaziy shaharlari, Istanbul, Vena, Myunxen, Shtutgart kabi shaharlarda bo'lib, Fransiyaning Sorbonna universitetida o'qiydi. Taraqqiyot bobida nafaqat musulmon Sharqidan, hatto Rossiyadan ham ancha ilgarilab ketgan Yevropa Ismoilbey Gaspiralining dunyoqarashini o'zgartirishga ijobji ta'sir ko'rsatdi. 1881-yilda chop etilgan "Rossiya musulmonlari" kitobida Gaspiralining quyidagi g'oyaviy qarashlari ilgari surildi:

- Rossiya ma'muriyati musulmonlarni atayin taraqqiyotdan, ilm-ma'rifatdan uzoqda tutayotganligi, musulmonlarning tili, dini, turmush tarzini buzayotganligi;
- musulmonlarning hayotini rus tili emas, balki anglash oson, eng ta'sirchan va tushunarli bo'lgan ona tilida o'zlashtiriladigan ilm-fangina o'zgartirishi mumkinligi, musulmonlarning ta'lim tizimi zamon talabidan orqada qolganligi;
- musulmonlarning Rossiyanı, uning hayoti va qonunlarini o'rganishlari, tor dunyoqarashlarini yangilashlari, hayotni jonlantiruvchi bilimga ega bo'lishlari uchun imkon yaratish lozimligi;
- Rossiya tarkibida yashayotgan turkiy xalqlarning amaldagi teng huquqliligini ta'minlash uchun ularning turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolish kerakligi, aks holda, ular o'zligini yo'qotishi mumkinligi;
- taraqqiyot, madaniyatga erishish,adolat o'rnatish uchun jahondagi tartibni buzishga, sotsialistik inqilobga hojat yo'qligini, aks holda, katta qiyinchiliklarga duch kelinishi.

Umuman aytganda, Ismoilbey Gaspirali g'oyalari, o'z mohiyatiga ko'ra, Rossiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi qaratilgan boiib, yuksak taraqqiyotga milliylikni saqlagan holda erishishga chaqiriq bo'lib maydonga chiqdi. Tabiiyki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga qarashli musulmon hududlar bilan yaqin aloqalari saqlanib qoldi. U yerdan Turkistonga Boxchasaroydan "Tarjimon", Qozondan "Vaqt" va "Yulduz", Astraxandan "Idil", Bokudan "Taraqqiy" va "Ittifoq" gazetalarini, Orenburgdan "Sho'ro" va "Chuquch", Tiflisdan "Mulla Nasriddin" kabi jurnallar kelib turar edi [2].

Ushbu matbuot nashrlari sahifalarida musulmon dunyosidagi siyosat, iqtisod va madaniyat to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari, bir vaqtlar qudratli bo'lgan Sharq mamlakatlarining G'arb davlatlari tomonidan mustamaka qilinishi masalalari ko'tarilar, xalq ta'limini modernizatsiya qilish, Rossiyaning barcha musulmon maktablarida ta'limni yagona adabiy tilga o'tkazish, o'z ona tilining obro'sini ko'tarish, o'z ma'naviy qadriyatlarni saqlash va boyitish kabi dolzarb masalalar ko'tarilar edi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarning barchasi Turkistonda jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishiga kuchli turtki berdi, albatta. Shu bilan birga, aytish joizki, Turkistonda jadidlik, ya'ni taraqqiyparvarlik harakatiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitratlar asos soldilar va bu harakatga rahbarlik qildilar. Jadidlar nafaqat milliy maorifni isloh qilish, balki XX asr boshlarida Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining kuchayishida ham muhim rol o'ynadilar.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sobiq ittifoq tarixshunosligida "milliy burjua harakati", deb ko'rsatib kelingan Turkiston jadidlari faoliyatini ular ilgari surgan g'oyalaming mazmun-mohiyati, maqsadlari, xususiyatlariga ko'ra ikki bosqichga boiish mumkin.

Birinchi bosqichga XIX-asr oxiridan 1917-yilgacha va ikkinchi bosqichga 1917-yil fevraldan 1929-yilgacha boigan davrni kiritish mumkin. Birinchi bosqich jadidlik harakatining vujudga kelishi, ularning tashkili va g'oyaviy jihatdan shakllanishi davri bo'lib, bu davrda hali uyushmagan jadidlar islom ta'limotini aqidaparaslikdan xoli qilish, zamonaviy taraqqiyot talablariga javob bermaydigan ta'llim tizimini isloh qilish, ma'rifatparvarlik faoliyatini maqsad qilib qo'ydilar. Ular, Turkistonning ilg'or mamlakatlaridan ortda qolishining sababi, o'lka ijtimoiy-madaniy hayotida mutaassiblik, johillik, xurofotning hukmonligi, maktab va madrasa ta'limiga e'tibor berilmayotganligi, ularning mutaassib ruhoniylar ixtiyorida ekanligi, o'qitish usullarining qoloqligi, aniq maqsadli dasturlaming yo'qligida deb bildilar. Ko'zlangan maqsadga erishish yoiida quyidagi vazifalami amalga oshirish ilgari surildi:

- ta'im usulini o'zgartirib, shu davrga qadar qoilanib kelayotgan "harfdan – tovushga" usulidan samarali "tovushdan – harfga" o'tish va o'quv rejalarida dunyoviy bilimlaming yetakchi o'rin egallashini ta'minlash;
- yoshlar tarbiyasi va aholining ma'naviyatini shakllantirishda islom ta'limotiga asoslanish. Bu jarayonda turli sharhlarga suyanmaslik, balki Qur'on Karim, hadislar va shariat me'yorlarini asil manbalar asosida tahlil qilish, ulardagi qoidalarga ko'r-ko'rona amal qilmasdan, ularni inson manfaati va taraqqiyoti uchun xizmat qildirish;
- aholini ilg'or mamlakatlardagi ijtimoiy hayotning yutuqlari bilan tanishtirish orqali jaholatdan qutqarish, ularni g'aflat uygusidan uyg'otishni maqsad qilib qo'yan ommaviy axborot vositalarini yaratish, omma orasida madaniy-oqartuv ishlarini olib borish.

Jadidlik harakatining Turkistondagi taniqli vakillari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Toshpolatbek Norbo'tabekov, Karim Norbekov, To'lagan Xo'jaumarov (Tavallo), Shokirjon Rahimi, Abdulrauf Muzaffarzoda, Muhammad Poshshaxo'jayev, Ashurali Zohiriy va boshqalar bor edi. Jadidlar XIX asr oxirlaridan boshlab o'z g'oyalalarini hayotga tatbiq etish va xalq ta'limining yangi tizimini yaratishga harakat qildilar. Ular taraqqiyparvar ulamolar, mulkdorlar yordamida bir qancha "usuli jadid" – yangi usuldagagi maktablarning keng tarmog'ini tashkil qildilar. Bu maktablarda diniy fanlardan tashqari arifmetika, geometriya, mantiq, tarix, geografiya, ona tili, ashula, jismoniy tarbiya o'qitilar, shuningdek, rus, arab va fors tillari o'rgatilar edi. Dastlab bu maktablarda o'qitish jarayonida tatar va ozarbayjon ma'rifatchilarining darslik hamda qo'llanmalaridan foydalilanigan bo'lsa, maorifni isloh qilish harakati rivojlanishi bilan jadidlar o'z darslik va o'quv qo'llanmalarini yozib, chop etish ishini yo'nga qo'ydilar. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy "Alifboi maktabi islomiya", "Madhali jug'rofiya umroni", "Kitob ul-Atfal" darsliklari, Turkiston, Buxoro va Xiva xaritalarini tuzdi. A.Shakiriy Firdavsiydan Krilovgacha bo'lgan jahon adabiyoti klassiklarining qisqa, biroq ibratli hikoyalaridan tuzilgan "Rahnomai Savat" (Bolalarga nasihatlar), "Havoiji diniya" (Diniy bilimlar), "Jamul hikoyat" (Hikoyalar to'plami) kitoblarini yaratdi. Jadidchilik harakatining namoyondalari haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tomonidan taqdim etilgan ("Unutilmas siymolar". Jadidchilik harakatining namoyandalari". – T. Akademiya, 1999). Turkiston jadidlarining yorqin vakillaridan biri Abdulla Avloniy yozgan "Adabiyot" va "Birinchi muallim" darsliklari 1917-yilgacha



4-5 marta qayta nashr qilindi. Jadid maktablari o'zining dastlabki davridayoq samarali ekanligini isbotlab, aholining e'tiborini qozondi va tez orada ko'payib bordi. Chunki bu maktablarda bolalar bir-ikki yilda to'la savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtirib olar edilar. Eski an'anaviy maktablarda buning uchun besholti yil o'qish kerak bo'lar edi. Shunga qaramay, aholini xurofotda saqlashdan manfaatdor jaholatparast ruhoniylar jadid maktablarining faoliyatiga qarshilik ko'rsatdilar. Rossiya imperiyasining mustamlakachi ma'muriyati esa vaziyatni qo'lidan chiqarmaslik uchun, 1908-yildan keyin bu maktablarni qattiq nazorat ostiga oldi. Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog'liq g'oyalarni xalqqa etkazish, ularning madaniy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida o'z gazeta va jurnallarini nashr qilishga harakat qildilar.

Matbuot nashrlari faqat dunyoda ro'y berayotgan voqealar haqida ma'lumot berib qolmay, ularga o'z munosabatlar ham bildirar edi. Jumladan, 1905-1907-yil voqealari, shahar dumasi va undagi Turkiston vakillari faoliyati, mahalliy aholi hayotidagi eski va zararli urf-odatlarni tanqid qilar, yosh avlodni o'qib-o'rgatish va tarbiyalash masalalariga ko'p e'tibor qaratar edi. Birinchi soni 1914-yil 1-aprelda nashrдан chiqqan "Sadoi Turkiston" gazetasiga Turkiston aholisini g'aflat uyqusidan uyg'otib, asriy jaholatdan xalos etishning, madaniy-ma'rifiy uyg'onishning bosh targ'ibotchisi bo'ldi. Jadid matbuotida tarixiy mavzular, xalqning milliy o'zligini saqlash va o'stirish, o'zbek tili masalalariga doir maqolalarga ham keng o'rinn berildi. Turkiston jadidlarning yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Muhtaram yoshlarga murojaat", "Turkiston tarixi kerak", "Ikki emas to'rt til lozim", "Til masalasi", "Duma va Turkiston musulmonlari" kabi maqolalarida xalq maorifi va milliy uyg'onishga doir masalalar ko'tarilib, ona tilining ahamiyati va arab, fors hamda rus tillarini o'rganish zarurligi, "Turkiston tarixi"ni yaratish payti kelgani, barcha taraqqiyarvar kuchlarni milliy uyg'onish uchun kurash, milliy davlatchilikni tiklash uchun birlashitish lozimligi uqtiriladi. Jadidlaming taraqqiyarvar qanoti tashabbusi bilan "Tarbiyayi atfol", "Umid", "Nashri Maorif", "Barakat", "G'ayrat", "Taraqqiyarvar" kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar tuzildi va ular Turkistonagi siyosiy hayotning faollashuvi, mustamlakachilik va chorizm hukumatiga qarshi kayfiyatlamining kuchayishiga turtki berdilar.

## XULOSA

Bugungi kunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebafo asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Dolimov U. "Jadidchilikning tamal toshi", "Jahon adabiyoti". – 2010 yil, 1-son.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna. 1914 y. 41-son.75.
4. Xoliqova R.E. Turkiston chor rossiyasi mustamlakachiligi davrida – T.: 2017 yil, 80-95 betlar.
5. Мирзаева Ф., Даробов А. "Jadid ma'rifatparvari Avloniy ijodi merosi."//Цифровизация современного образования: проблемы и решения 1.1 (2023): 252-255.



**Muharrir:** Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**